

HUDUDLARNI “O‘SISH NUQTALARI”GA TAYANIB RIVOJLANTIRISH, AHOLIGA MUNOSIB TURMUSH SHAROITI YARATISH – DAVLATIMIZ SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi hayoti, hududlarning iqtisodiy rivoji va yangi loyihalar bilan tanishish maqsadida 18-iyun kuni Toshkent viloyatining Parkent tumaniga tashrif buyurdi va “Toshkent-Sharqiy” aeroporti qurilishini ko‘zdan kechirdi.



Mamlakatning barqaror rivojlanishi va uning xalqaro jozibadorligi oshishi bilan tashqi iqtisodiy aloqalar faollashib, investitsiyalar oqimi ko‘paymoqda. Bunday sharoitda O‘zbekistonda transport infratuzilmasining barcha yo‘nalishlarini modernizatsiya qilishga o‘shining asosiy omili sifatida ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Ana shunday strategik loyihalardan biri “Toshkent-Sharqiy” aeroportini rekonstruksiya qilishdir. U yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan tez, xavfsiz va qulay qatnovlarni ta’minlash, shuningdek, poytaxtning asosiy xalqaro aeroportiga yuklamani yengillashtirishga mo‘ljallangan.

Avvalo, 4 kilometr uzunlikdagi uchish-qo‘nish yo‘lagi yangilanib, eng og‘ir samolyotlarni ham qabul qilish quvvatiga ega bo‘ldi.

Hozirgi kunda yuqori martabali mehmonlar hamda biznes-aviatsiya uchun 2 ta terminal, peron va angarlar barpo etilmoqda. Aeroport noqulay ob-havo sharoitlarida ham uchish-qo‘nishni ta’minlovchi ICAO III-A toifasidagi ilg‘or radiotexnika va meteorologiya uskunalari bilan jihozlanadi. Yopiq angarlarda samolyotlar soz va xavfsiz saqlanishi uchun zamonaviy sharoitlar ta’minlanadi.

Mazkur aeroport qulay joylashuvi tufayli poytaxt va Yangi Toshkent shahri uchun muhim

transport xabiga aylanadi, shuningdek, Toshkent viloyatida turizmni rivojlantirish uchun qo‘shimcha rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi, xalqaro tashriflar va ishlabarmonlik safarlarini amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi, xorijiy investorlarni qabul qilish uchun sharoitlar yaxshilanadi. Natijada iqtisodiy faollik oshadi, xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi sezilarli darajada oshadi.

Davlatimiz rahbari loyihaning texnik xususiyatlari, terminallarning arxitekturaviy yechimi bilan tanishib, qurilish ishlarini jadallashtirish, servis darajasini oshirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Parkent tumaniga tashrifini dastlabki manzili “Parkentsoy” turar joy massivi bo‘ldi.

Hududlarni “o‘shish nuqtalari”ga tayanib rivojlantirish, aholiga munosib turmush sharoitlari yaratish — davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi. Bunday o‘zgarishlar Parkent tumanida ham namoyon.

Tuman markazidan oqib o‘tuvchi Parkentsoy qirg‘og‘ida qurilayotgan ushbu massivni ekoshalar deiyish mumkin. Uning umumiy maydoni olti gektar bo‘lib, jami 5 ming 200 xonadonli 125 ta ko‘p qavatli turar joy

quriladi. Ular barcha zamonaviy kommunal tarmoqlar, energiya tejamlor texnologiyalar bilan ta’minlanadi. Jumladan, uylar tepasiga geokollektorlar o‘rnatilib, suv isitishda foydalaniladi.

Aholi nisbatan zich yashaydigan hududlar uchun bunday massivlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Uylarning shinamligi va tannarxi xalqimizga mos. Bu ayrim mahallalarda bir hovlida qisilishib yashayotgan oilalar uchun ayni muddao bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari mazkur yangi xonadonlardagi sharoitlarni kirib ko‘rdi.

Bu yerda, shuningdek, ikkita maktab, sakizta bog‘cha, bolalar maydonchalari, 10 gektarlik park, sun‘iy ko‘l, sayilgoh va velayo‘laklar barpo qilinadi. 17 kilometr ichki yo‘llar ta’minlanadi.

Massiv nafaqat obod turmush uchun, balki tadbirkorlik uchun ham sharoit yaratadi. Bu yerda 58 ta noturar bino qad rostlaydi. Ularda savdo va xizmat korxonalari joylashib, 700 dan ortiq ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari shu yerda tumanni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Bu boradagi muhim loyiha — “Baytqo‘rg‘on — Parkent” elektrlashtirilgan temir yo‘li. Hozirda uning qurilishi jadal ketmoqda. Qariyb 24

kilometrluk bu yo‘l foydalanishga topshirilgach, Parkentdan poytaxtimizga borish uchun katta qulaylik yaratiladi, tumanning xushmanzara go‘shalariga sayohatga kelish osonlashadi. Unda kuniga 275 ming nafargacha yo‘lovchi tashilishi hisob-kitob qilingan. Umuman, buning natijasida qatnov va tadbirkorlik faollashib, Parkent iqtisodiyotining sur‘ati jadal oshadi.

Parkentsoyni tartibga keltirish, qirg‘oqlarini mustahkamlash bo‘yicha ham ish olib borilmoqda. Birinchi bosqichda soyning 4 kilometr qismi to‘liq betonlashtirildi. Bu yangi bunyodkorliklarga yo‘l ochdi. Xususan, soy bo‘ylab qariyb besh kilometrlik yangi yo‘l qurildi. U hozir tuman markazidan o‘tgan asosiy ko‘chaga yondosh bo‘lib, bir kecha-kunduzda 10 ming avtomobilni o‘tkazish quvvatiga ega. Bu transportlar yuklamasining bir qismini o‘ziga olib, markazda tirbandlikni kamaytiradi. Shuningdek, piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgich va ko‘rik barpo etilgan.

Endi, ikkinchi bosqichda Kumushkongacha bo‘lgan o‘zanlar tartibga keltirilib, ochiladigan 100 gektar yerda turizm obyektlari tashkil etish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz shu yerda parkentlik faollar bilan suhbatlashdi.

— Bizning eng katta boyligimiz yurtimiz tinchligi, xalqimizning osoyishtaligi. Tinchlik barqaror bo‘lsa, mana shunday bunyodkorlik bo‘ladi, rejalar amalga oshadi. Davlat tashkilotlarini safarbar qilib, imkoniyatlarni yuzaga chiqarib, hamma hududlarni rivojlantirishga harakat qilayapmiz. Parkentga ham istiqbol shabadas, islohotlar natijasi yetib kelganini ko‘rib, xursand bo‘ldim. Xalqimiz mana shunday farovon sharoitda yashashga munosib, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Nuroniylar tuman rivoji uchun yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar, aholi hayotida bo‘layotgan o‘zgarishlar, mehnatidan baxt topayotgan insonlar haqida so‘zladi.

Davlatimiz rahbari Parkent tumanidagi Kumushkon mahallasida bo‘lib, sayyohlik salohiyati va mehmon uylarini ko‘zdan kechirdi.

Bu sohaga ko‘plab imtiyozlar berilib, tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Turizm qishloqlarida zarur infratuzilma tashkil etilyapti. Bu imkoniyatlardan foydalanib, xonadonida mehmon uyi ochganlar talaygina.

Oxirgi yillarda Kumushkonga sayyohlar kelishi ko‘paygan. Bugungi kunda saksondan ortiq xonadonda mehmonxona tashkil etilgan. Ularda yiliga 172 ming nafar sayyohga xizmat ko‘rsatilmoqda.

Shunday tadbirkorlardan biri Olim Yusupov soy bo‘yidagi hovlisida 48 o‘rinli mehmon uyi ochgan. Xonalar milliy uslubda, shinam qilib jihozlangan. Mehmon uyi yiliga 2 mingdan ziyod sayyohga xizmat ko‘rsatadi.

Prezidentimiz bu yerdagi obodlik va omilkorlikni ko‘rib, shunday loyihalarini boshqa so‘lim maskanlarda ham tashkil etish kerakligini ta’kidladi. Tadbirkorlarga zarur

mablag‘ ajratib, qo‘shimcha xizmatlar tashkil etishiga ko‘maklashish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatma berdi. Mahallalarda ichki imkoniyatlarni yuzaga chiqarish aholini band qilishda katta manba ekanini qayd etildi.

Bu joylarga sayyohlar so‘lim manzaralardan bahramand bo‘lish uchun keladi. Shuningdek, Masjidali ziyoratgohi ham diqqatga sazovor joylardan biri.

Toshkent viloyatida mingga yaqin shunday mehmon uylari bor. Ularda 2 ming 500 ta ish o‘rni yaratilgan.

Prezidentimiz Parkent tumanidagi intensiv bog‘da sarxil mevalar hosilini ko‘zdan kechirdi.

“Meridian Tempo” korxonasiqa qarshili ushbu 54 gektar bog‘da gilos, olma, nok va malinaning eksportbor navlari ekilgan. Ko‘chatlar Fransiya va Ispaniyadan keltirilgan. Daraxtlar o‘zini o‘zi changlatish xususiyatiga ega. Bu hosildorlik yuqori bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy agrotexnologik tizimlar orqali bog‘da to‘liq tomchilatib sug‘orish joriy etilgan. Avval suv maxsus havzada to‘planadi va tabiiy nishablik orqali sug‘oriladi. Bunga energiya sarflanmay, natijada xarajat va mahsulot tannarxi kamayadi. Shuningdek, bog‘da quyosh panellari o‘rnatilgan.

Pishib yetilgan mevalar eksportga yo‘naltirilmoqda. Bu yil 256 tonna gilos, 500 tonna olma, 480 tonna nok, 30 tonna malina yetishtirilishi mo‘ljallangan. Eng muhimi, bundan keladigan daromad boshqa an‘anaviy o‘simliklarga nisbatan bir necha barobar yuqori.

Prezidentimiz mutasaddilarga bu usulni ommalashtirish, mevalarni parvarishlash va qadoqlash bo‘yicha chet el tajribasini joriy etish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Parkent tumaniga tashrif davomida “Oltin bel” cho‘qqisidagi dam olish maskani va yangi loyihalar bilan tanishdi.

Xushmanzara tog‘ bag‘ridagi 3 gektar joyda qurilgan ushbu mehmonxonalar ixchamligi va hamyonbopligi bilan ajralib turadi. Hozirda jami 188 o‘rinli 2 ta mehmonxona, kapsula shaklidagi uyalar, restoran va xo‘jalik binolari barpo etilgan. Keying boshqichda yana 20 ta tashvud uy qurilishi mo‘ljallangan.

Shavkat Mirziyoyev mehmonxonada yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi.

Umuman, hududda turizmni rivojlantirish maqsadida qiymati 1 milliard 800 million dollar bo‘lgan 52 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada 3 ming 300 ta ish o‘rni yaratiladi va 1 million nafar sayyohga xizmat ko‘rsatiladi.

Parkentning qorli tog‘lari yana bir ulkan loyihani amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu yerda Avstriya kompaniyasi tomonidan 1 ming 200 gektarda tog‘-chang‘i kurorti qurish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbariga ushbu loyiha haqida axborot berildi. Uning doirasida 3,4 va 5 yulduzli mehmonxonalar, chang‘i uchish va osma dor yo‘li, shalelar, piknik maydoni, restoranlar, sog‘lomlashtirish xizmatlari tashkil etiladi.

Loyiha uch bosqichda amalga oshiriladi va to‘liq quvvatda kuniga 15 ming nafar sayyohni qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi. 600 ga yaqin servis majmualari tashkil etiladi. Mavsumiy xizmatlar bilan birga 10 mingga yaqin ish o‘rni yaratiladi. Umuman, bu maskan, Bo‘stonliqdagi “Amirsoy” kurorti kabi, Toshkent viloyatining yirik turizm manzillaridan biriga aylanadi.

Mutaxassislar bilan muloqotda loyihani takomillashtirish, xizmatlar qamrovini kengaytirish va qurilishni tezlashtirish tadbirlari yuzasidan fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Parkent tumanidagi “Batu Eksport” korxonasini borib ko‘rdi.

15 million dollarlik investitsiya hisobidan tashkil etilgan mazkur zamonaviy loyiha doirasida yiliga 5 ming tonna meva-sabzavot qayta ishlanadi. Toshkent viloyatidan tashqari Samarqand va Farg‘onadan ham mahsulotlar keltiriladi.

Korxonaga Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Xitoyda ishlab chiqarilgan zamonaviy uskunalar o‘rnatilgan. Bu mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxonada 180 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan, ular o‘rtacha 7 million so‘mgacha oylik maosh oloyapti.

Bu yerda tayyorlangan mahsulotlar Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa va MDH mamlakatlariga eksport qilinadi.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini ko‘zdan kechirib, xodimlar bilan suhbatlashdi.

— Meva-sabzavotchilikda Parkentning imkoniyatlari katta. Texnologiya olib kelib, jahon bozoriga sarxil va qurutilgan mevalarni eksport qilish salohiyatimiz bor. Birgina Yaponiyani olsak, O‘zbekiston mahsulotlariga qiziqish yuqori. Faqat mevalarni yaxshi parvarishlab, sifatli yetkazib berish zarur. Bunday korxonalarni rivojlantirsa, shu tarmoqning o‘zidan bir necha milliard dollar daromad olish mumkin, — dedi Prezident.

Shu yerda Toshkent viloyatining eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ko‘zdan kechirildi. O‘tgan yili viloyatdan 130 million dollarlik meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan. Lekin hudud tabiati va salohiyatiga nisbatan bu kam.

Sohada eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 7 turdagi moliyaviy yordam va 3 xil soliq imtiyozlari hamda preferensiyalar joriy etilgan. Toshkent viloyatida meva-sabzavotni qayta ishlovchi 175 ta korxona bo‘lib, qayta ishlash darajasi yil sayin ortmoqda. Joriy yilda eksport ko‘rsatkichini jadal oshirish rejalashtirilgan.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
Abdulaziz MUSAYEV,
O‘ZA muxbirlari**



DAVLAT XALQ DARDI BILAN YASHAYDI

AHOLI MANFAATLARIGA QARATILGAN BOSHQARUV

Joriy yil 16-iyun kuni Prezidentimiz raisligida islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida asosiy e‘tibor amalga oshirilayotgan islohotlar har bir insonning hayotida aks etishi kerakligiga qaratildi. Zero, bu davlat rivojida muhim omil sanaladi.

Joylarda sud qarorlari ijrosi ta’minlanmasligi, davlat tashkilotlarining murojaatlar bilan ishlashda mas’uliyatsizligi, vakillik organlarining nazoratdan ko‘ra faqat ko‘zbo‘yamachilik bilan shug‘ullanishi kabi holatlar esa xalqning davlatga va islohotlarga ishonchini pasaytiradi. Shu bois, yig‘ilishda ijro intizomini mustahkamlash, aholi muammolari bilan ishlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

► Davomi 2-beta

Inson qadri uchun

Odamlarni nima birlashtiradi? G‘oya, maqsad, manfa’at, o‘tmish, qadriyatlar va hokazo. Bularning barchasi bor gap. Lekin men boshqa misol keltirmoqchiman. Aytaylik, oldin notanish bo‘lgan ikki kishi birga ter to‘kib, mehnat qilib, biri birinchi g‘ishtni, ikkinchisi ikkinchi g‘ishtni qo‘yib imorat qursa yoki biri ko‘chat ekib, ikkinchisi tagiga suv quyib bog‘ yaratsa; biri charchaganda ikkinchisi qo‘l uzatsa, biri chanqaganda ikkinchisi suv tutsa; devorlar balandlagan, bog‘lar mevaga kirgan sayin mehnatining mahsulidan ikkovlon birga quvonsa, zavqlansa, bir-birini bag‘riga bosib qutlasa, ularni nima birlashtirgan bo‘ladi?

Ha, odamlarni mehnat, yaratuvchanlik ham birlashtiradi. Buning hayotdagi isbotini ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, Qoraqalpog‘istonga keling. Chunki hozir Qoraqalpog‘ diyori bunyodkorlik maydoniga aylangan. U yerda toshkentlik, farg‘onalik, samarqandlik yoki qashqadaryolik yurtdoshlarimiz maktablar, bog‘chalar, tibbiyot muassasalari, kutubxonalar uy-joylar bunyod etmoqda. Mahalliy aholi bilan birlashib, ko‘cha va mahallalarni obod qilyapti. Odamlarning ko‘ngliga nur va ertasiga ishonch olib kirmoqda.

► Davomi 3-beta



OG‘IRI YENGIL, MUSHKULI OSON BO‘LAYOTGANLAR QALBIDA MINNATDORLIK TUYG‘USI ILDIZ OTDI

UCH YIL OLDIN

Davlatimiz rahbari 2022-yil 23-24-fevral kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif chog‘ida bir ezu tashabbusni ilgari surgan edi. Katta rejalar, maqsadlar, ulkan moliyaviy manbalar bilan birga O‘zbekistondagi 13 ta hudud hokimlari va tadbirkorlarini boshlab kelib, Orolbo‘yi hududini rivojlantirish maqsadida har bitta viloyatga Qoraqalpog‘istonning bittadan tumanini birkiktirgandi. O‘shanda Toshkent shahri va viloyatlar hokimlari o‘ziga birkiktirilgan hududlarda qiladigan ishlari bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazgandi.



Munosabat

DAVLAT XALQ DARDI BILAN YASHAYDI

AHOLI MANFAATLARIGA QARATILGAN BOSHQARUV

Boshlanishi 1-betda

Endi ijro intizomiga Hisob palatasi mas'ul bo'ladi, uning vakolatlari kengaytiriladi. Berilgan mablag'larning qanchalik to'g'ri sarflanishi emas, balki qanday samara bergani, aholi bundan qanchalik roziligi ham o'rganiladi.

Tuman hokimlarining vakolatlari kengaytirildi

Prezidentimiz aholining dardini eshitib, ularga sharoit yaratib berish rahbarlarning asosiy vazifasi ekanini aytib, "Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmashimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat", dedi.

Ushbu fikr islohotlar markazida inson, uning hayoti, orzulari, yashash sharoiti turganiga yaqqol dalildir.

Endilikda tuman hokimlari har kuni o'z ishini aholi dardi va tashvishini eshitishdan boshlaydi, bugungi muammoni keyinga surmaydi. Murojaatni shu joyning o'zida hal qiladi. Bu borada, albatta, tuman hokimining vakolatlari kengaytiriladi.

Davlatimiz rahbari bu orqali joylarda aholi muammolarini o'z vaqtida hal qilish va hudud rivojini ta'minlashga erishish maqsadida tuman rahbarlariga katta ishonch bildirdi. Ta'kidlanganidek, agar tuman bo'g'ini samarali ishlasa, butun davlat mexanizmi ishlaydi. Hozircha esa tuman hokimlari tuman tashkilotlari shtatini taqsimlash, rahbarni lavozimga tayinlash, qoniqarsiz faoliyat yuritganini vazifasidan ozod etish yoki mablag'larni taqsimlash kabi asosiy vakolatlarga ega emas. Endi barchasi o'zgaradi: har bir hokim o'z hududida mustaqil qaror qabul qiladi, har bir vazifa va funksiyasi mablag'i bilan mustahkamlanadi. Aks holda, mablag' oshirilmaydi va mas'ul rahbar ishdan ketadi. Bu salohiyatli rahbarlar uchun katta imkoniyat bo'lsa, sustrog'i uchun signaldir.

Bu tizimdan ko'zlangan asosiy maqsad tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish va aholi muammosini yechishga jiddiy e'tibor qaratishdan iborat. Hokimliklar xalq bilan ishlashda murojaatni turli idoralarga yubormasdan,



Eldor TULYAKOV,
"Taraqqiyot strategiyasi" markazi
ijrochi direktori

balki suhbatlashish, yechim topish, resurs ajratish kabi amaliy faoliyatga ko'proq e'tibor bersa, mahallalarda qishloq xo'jaligi, chorvachilik, infratuzilma, suv va zamonaviy agrotexnologiyalar kabi odamlarga naf keltiradigan sohalar rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tadbirkorlikni rag'batlantiradi, aholini ish bilan ta'minlaydi va iqtisodiy barqarorlikka olib keladi.

Xalq tizimli islohotlar natijasiga guvoh bo'lishi kerak

Yig'ilishda belgilangan vazifalar va yangicha boshqaruv modeli xalq hayotini bevosita va bilvosita o'zgartirishga qaratilgan choralaridir. Endilikda eng yaxshi rahbar va tizim rag'batlantiriladi, mas'uliyatsizlar esa javobgar bo'ladi. Bu esa xalqqa nisbatan adolati yondashuv demakdir.

Prezidentimiz aholi manfaati, inson qadri va dardini hal etish zarurligini asosiy masala sifatida qayta-qayta e'tirof etdi. Ushbu yangicha yondashuvlar, islohotlar va nazorat mexanizmlari samarasi aholi turmush darajasi yaxshilanishi va davlatga ishonch ortishi bilan o'lchanadi.

Shu bois, endi islohotlar har bir mahallada, har bir uyda, har bir inson hayotida o'z aksini topishi, "Inson qadri uchun" tamoyili davlat siyosatining asosiy mezoniga aylanishi lozim.

Nuqtayi nazar

ZIMMAMIZDA KATTA ISHONCH, MAS'ULIYAT YUKI BOR

Halimjon UMAROV,
Quva tumani hokimi

Xalqqa xizmat qilish kishi qalbida cheksiz faxr uyg'otadi. Ayniqsa, o'zgarishlarni hayotga joriy etishda quyi bo'g'in vakili bo'lish ikki karra mas'uliyat yuklaydi. Joriy yil 16-iyun kuni Prezidentimiz raisligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarining borishi, aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Unda xalq farovonligi bilan bog'liq ko'plab masalalar va ularning yechimiga doir tashabbuslar aytildi. Jumladan, Prezidentimiz "Bir narsani to'g'ri tushunib



ado eta olishimiz uchun qator qulayliklar ham yaratib berilmoqda.

Yana bir gap, endi boshqaruv tizimida o'ziga xos o'zgarishlar bo'ladi. Aholi muammolarini bartaraf etish, qonunlar ijrosi ta'minlashda eng quyi pog'ona mas'uliyati oshirilmog'ida. Shu kunga qadar aholi farovonligi yo'lidagi islohotlar ijrosida bevosita ishtirok etadiganlar ko'p edi. Ammo ularning rejalari bir-biriga mos kelmasdi. Maqsad bir, lekin qarashlar, yondashuvlar turlicha edi. Oqibatda bu

Joylarda savdo-sanoat palatasi, bank, soliq, kadastr vakili va yetakchi tadbirkorlardan iborat "Islohotlar shtabi"ni tuzish belgilab berildi. Ular mavjud mahallalar kesimida loyiha, infratuzilma, moliyaviy manba, kadrlar masalasini qamrab olgan uch yillik dastur tayyorlaydi. Kelgusi yil uchun budget, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat, investitsiya va bandlik dasturlari ular xulosasi asosida tasdiqlanadi. Bu mavjud loyihalarni chetdan emas, har bir hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish va joriy etish imkoniyatini beradi.

o'lish zarur. Tuman bo'g'ini samarali ishlamas, yuqoridan qanday topshiriq tushirilmasin, ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi", dedi.

Bunday chaqiriq biz — mas'ullarni yanada sergak tortishimizga sabab bo'ladi. Yangi O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlardagi o'mimiz va burchimizni teran anglashga undadi. Quvonarlisi, bizdan xalqimiz uchun fidoyilik bilan ishlash so'ralyapti. Ayni paytda vazifamizni to'la

tushunmovchilik, boshboshdoqliklarga sabab bo'lardi. Shu bois, belgilangan reja, loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish paysalga solib kelingan. Endi vazifalar ijrosini ta'minlash bevosita quyi tizimga tushirildi. Bunda tuman va shahar hokimlarining vakolat va imkoniyatlari kengaydi.

Hududlarni kompleks rivojlantirishga mas'ul bo'lgan 9 ta vazirlikning joylardagi bo'limlari hokimlik tizimiga

DUNYONING ENG YAXSHI TAJRIBALARI YAGONA PLATFORMADA

Bugun poytaxtimizda yana bir yirik xalqaro tadbir – "Eco Expo Central Asia 2025" ekologik texnologiyalar xalqaro ko'rgazmasi ish boshladi. Markaziy Osiyoda ilk bor o'tkazilayotgan ushbu tadbir 30 ga yaqin davlatni birlashtirib, barqaror rivojlanish bo'yicha ilg'or tajribalarni ommalashtirish, ochiq muloqotlar va "yashil" transformatsiyani ilgari surish uchun yirik platformaga aylanadi.

Bugun insoniyat turli sohada salmoqli yutuqlarga erishganiga qaramay, ekologik barqarorlik borasida katta muammolar bilan yuzma-yuz keldi. Iqlim o'zgarishi, suv va tuproq ifloslanishi, bioxilma-xillik kamayishi, cho'llanish kabi noxushliklar kelajakka jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Bu muammolarga yechim topish, avvalo, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikda ish yuritish, qolaversa, ilm-fan hamda innovatsiyalar yutug'idan oqilona foydalanib, tabiatga bezarar usul va vositalarni amalga tatbiq etishni taqozo etayotir.

Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamlorligiga asoslangan "yashil" rivojlanish modeliga o'tishdir. Shu maqsadda joriy yil mamlakatimizda Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili deb e'lon qilindi hamda shu asosda ishlab chiqilgan davlat dasturi amalga oshirilyapti. Davlat dasturi doirasida suv, havo, tuproq soffligini asrash, obihayotni tejash, tabiiy muvozanatni saqlash, yer osti va yer usti boyliklaridan oqilona foydalanish, "yashil" hududlarni kengaytirish bo'yicha izchil ishlar bajarilyapti.

Xususan, "Yashil makon" dasturi doirasida shaharlar hududining kamida 30 foizini ko'kalamzor maydonga aylantirish, qishloq xo'jaligida suv

ECO EXPO CENTRAL ASIA 2025

tejoyvchi texnologiyalarni amaliyotga to'liq tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar qilyinyapti. Tez sur'atda o'sib borayotgan iqtisodiyotimizning energetikaga talabini to'liq qondirish uchun "yashil" quvvatlar barpo etilyapti. 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish reja qilingan.

Mazkur ko'rgazma ana shu yo'nalishdagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim qadamlardan biri. Shu bilan birga, bu tadbir islohotlarimizni chuqurlashtirish barobarida xalqaro ekologik hamkorlikni mustahkamlashga qat'iy intilishini ham yaqqol namoyon etadi.

— "Eco Expo Central Asia 2025" oddiy ko'rgazma emas, balki yangi avlodning ixtisoslashtirilgan platformasi. Bu yerda ekspertlar, kompaniyalar, startaplar, davlat va xalqaro tashkilot vakillari eng zamonaviy va samarali ekologik yechimlarni taqdim etadi, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi mas'ul xodimi Murodjon Nurmatov. — Asosiy e'tibor iqlim barqarorligini saqlash, resurslarni tejash va toza texnologiyalarni joriy etish kabi dolzarb masalalarga qaratiladi.

Sun'iy intellektndan tortib, "yashil" energetika, suv resurslarini tejash va ekologik ta'limgacha — ko'rgazma kelajak texnologiyalarining barcha yo'nalishini qamrab oladi. Ishtirokchilar orasida Avstriya, Germaniya, Shveysariya, BAA, Saudiya Arabistoni, Buyuk Britaniya, Italiya, Lyuksemburg kabi mamlakatlar vakillari bor. Bu esa Markaziy Osiyo ekologik kun tartibiga xalqaro darajada qiziqish yuqori ekanini ko'rsatadi.

Tadbir ishtirokchilarga "yashil" texnologiyalarini keng namoyish etish, yangi bozorga chiqish, strategik hamkorlik o'rnatish, global barqaror rivojlanish harakatining faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini taqdim etadi.

21-iyungacha qadar davom etadigan tadbir doirasida innovatsion loyihalar va startaplar taqdimoti, ekologik ta'lim va boshqa yo'nalishlarda muloqotlar, yurtimizda ekologiya sohasida o'rtilgan ilg'or tajribalar aks etgan ko'rgazmalar namoyish etiladi. Xalqaro ekspertlar ishtirokida davra suhbatlari, mahorat darslari va o'quv dasturlari uyushtiriladi. Tabiat va inson uyg'unligini aks ettiruvchi fotoko'rgazmalarga keng o'rln beriladi.

Ko'rgazmada mintaqaning eng og'riqli ekologik muammolaridan biri — Orol dengizi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, "yashil" transport, shaharlarni obodonlashtirish va ekoturizmi rivojlantirish masalalari ham kun tartibidan o'rln olgan.

Qisqasi, "Eco Expo Central Asia 2025" innovatsiya, barqarorlik va xalqaro hamkorlik asosida shakllanayotgan yangi ekologik tafakkur sari dadil qadamdir. Ko'rgazmada ishtirok etish orqali har bir qatnashchi salohiyatini namoyon etish bilan birga, dunyoning eng yaxshi tajribalari bilan tanishish, mintaqamizda ekologik barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shish imkoniga ega bo'ladi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Kun mavzusi

Davlatimiz rahbari joriy yil 17-iyun kuni Ostona shahrida "Markaziy Osiyo — Xitoy" ikkinchi sammitida ishtirok etdi. Unda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy o'rtasidagi manfaatli hamkorlikni ustuvor yo'nalishlarda kengaytirish istiqbollari, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar ko'rib chiqildi.

EKOLOGIK ALYANS GLOBAL IQLIM O'ZGARISHLARIGA QARSHI KURASHDA MUHIM MINBAR



Sammitda Prezidentimiz nutq so'z'ladi. Ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida qarashlarini bildirar ekan, yangi iqtisodiy sheriklik dasturini qabul qilish, "Raqaqli makon va yo'l" doirasida "Raqaqli Ipak yo'li" ko'p tomonlama savdo platformasini tashkil etish, "Markaziy Osiyo — Xitoy" sanoat va infratuzilma makoni uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish kabi qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz ravnaqiga xizmat qiladigan bunday taklif va tashabbuslar ekspertlar, keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. — Prezidentimiz sammitdagi nutqida ayni paytda dolzarb ahamiyat kasb etuvchi muhim takliflarni ilgari surdi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Xushvaqt Hayitov. — Xususan, Markaziy Osiyo va Xitoyning transport jihatidan o'zaro bog'liqligini rivojlantirish yana bir ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi. Bu yo'nalishda "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li qurilishi boshlangani Yevroosiyo makonidagi yangi transport va

tranzit kommunikatsiyalari tizimining muhim elementi ekan ta'kidlandi. Bu loyiha G'arb va Sharqni bog'laydigan muhim ko'priklar vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, transaf'g'on temir yo'l magistrali loyihasini amalga oshirish yanada keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Davlatimiz rahbari bu borada "Ushbu strategik soha istiqboliga oid umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun transport idoralarimizga dala tadqiqotlarini olib borish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish, muqobil yo'laklar bo'yicha yuklarni tashish borasida sinov tariqasidagi loyihalarini amalga oshirish uchun ekspertlar guruhlarini shakllantirish yuzasidan topshiriq berishimiz zarur deb hisoblayman", dedi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt va raqaqli texnologiyalar sohasidagi hamkorlik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratildi. Aynan ushbu yo'nalishlar bugungi kunda milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini belgilab, uzoq muddatli o'sishning drayveri bo'lmoqda. Shu o'rinda bugun Xitoy intellektual tizimlar

mujassam ekanini bejiz ta'kidlamadi. Hayot davom etar ekan, uning o'ziga yarasha yutuq va muammolari bo'lishi tabiiy. Yig'ilishda aholi farovonligini oshirish, har bir murojaatga o'z vaqtida yechim topish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Yangi O'zbekistondagi ilk o'zgarishlar vaqtidayoq murojaatlar bilan ishlash birinchi o'ringa qo'yilgan edi. Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Tan olish kerak, shu kunga qadar biror fuqaro ijtimoiy-iqtisodiy masala yuzasidan murojaat qilsa, Xalq qabulxonasiga yo'naltirish bilan kifoyalanganimiz. Oqibatda mahalla, tuman darajasidagi masalalar viloyat, respublika miqyosiga ko'tarilgan, ammo amaliy yechim topmagan. Bu murojaatchilarning haqli e'tiroziga sabab bo'lib kelayotgandir. Endi bu yo'nalishda ham yangi tizim, tartib joriy qilindi. Aholi murojaatlari bilan ishlash mahalliy hokimlar zimmasiga yuklatildi. Hokimlar ko'tarilgan masalalarni yechim bera olishi uchun alohida sarmoya ham ajratiladigan bo'ldi. Bu murojaatlarni e'tiborsiz qoldirmay, o'z vaqtida hal etish imkoniyatini beradi.

Quva tumani ahli yurtimizdagi keng ko'lamli islohotlarni o'z hayoti misolida his etmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 1-apreldagi "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan qator ishlar qilinmoqda. Yangi loyiha, ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyatini yo'lga qo'yish orqali aholi farovonligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar boshlab yuborilgan.

Tanqidiy, tahliliy ruhda bo'lib o'tgan videoselektorda ko'tarilgan masalalar, oldimizga qo'yilgan har bir vazifa amaliy ish faoliyatimizda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Bu esa boshlangan loyihalarni yanada izchil davom ettirish mas'uliyatini his etish demakdir. Chunki bizga barcha imkoniyat, sharoit yaratib berilmoqda. Endi biz xalqimiz, mamlakatimiz oldidagi burchimizni to'la ado etsak bas.

rivojlanishida yetakchilik qilib, ushbu yo'nalishda an'anaviy ravishda yuqori o'rnlarni egallab kelayotganini ta'kidlash joiz. Prezidentimiz ayni maqsadda asosiy energetika va transport yo'nalishlari bo'yab Markaziy Osiyo — Xitoy optik to'lali aloqa tarmog'ining raqaqli trassasini barpo etish taklifini ilgari surgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu onlayn savdo, "aqlii" logistika, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt — Sian deklaratsiyasida o'z ifodasini topgan raqaqli kun tartibining barcha yo'nalishlarini yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Shuningdek, mintaqada investitsiyalarga juda katta ehtiyoj mavjud. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, Markaziy Osiyoni infratuzilmaviy rivojlantirishda kapital qo'yilmalar taqchilligi bir necha yuz milliard dollar deb baholannmoqda. Mazkur investitsiyaviy muhitda bevosita Xitoy sarmoyasi ham muhim o'rln tutadi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz "Markaziy Osiyo — Xitoy" sanoat va infratuzilmaviy makonini yaratishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishni taklif etdi. Sanoat sohasidagi va infratuzilmaviy bog'liqlik kuchayishi mamlakatlarimizning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat: bugungi kunda global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishlari mamlakatlar barqaror taraqqiyotiga jiddiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Bunga qarshi kurashishda Xitoy bilan juda katta istiqbolli loyihalar rejalashtirilmoqda.


Xitoyning ilg'or tajribasini keng joriy etish xatarlarni kamaytirish, "yashil" kun tartibi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi chora-tadbirlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan 2030-yilgacha mo'ljallangan "yashil" rivojlanish dasturini qabul qilish va uni amalga oshirishga imkon qadar tezroq kirishish muhimligi qayd etildi.

Ushbu davlat tajribasi asosida mintaqada kompleks ko'kalamzorlashtirish va pitomniklarni yaratish, biomuhandislik, biomonitoring stansiyalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-ta'lim dasturlarini qamrab olgan holda sinov tariqasidagi qator muhim loyihalarni amalga oshirish mumkin.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu yo'nalishda ekologik alyans tuzish taklifi ilgari surildi. Bunda Xitoyning o'ziga xos tajribasi va uslubidan samarali foydalanilgan holda ilmiy tadqiqotlar qilish, olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida faol hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Inson qadri uchun

QORAQALPOG‘ISTONDA
YANGI HAYOT NAFASIOG‘IRI YENGIL, MUSHKULI OSON BO‘LAYOTGANLAR
QALBIDA MINNATDORLIK TUYG‘USI ILDIZ OTDI

Nazira MATYAYUBOVA,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Jo‘qorg‘i Kengesi deputati,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari buning sababi va ahamiyatini tushuntirar ekan:

— Orolbo‘yida ahvol yomon deb ko‘pchilik gapiradi. Lekin hamma ham bu yerga kelib ko‘rmagan. Orolning havosidan nafas olishi, sharoitni ko‘rib, adolatli baho berishi uchun bu yerga butun respublikadan rahbarlarni yubordim. Qoraqalpog‘iston rivojiga katta mablag‘ yo‘naltiramiz, — deya ta‘kidlagandi.

Qoraqalpog‘istonda ko‘pchilik butun davlatning e‘tibori, salohiyati, mablag‘i ularga qaratilayotganidan xursand bo‘lsa-da, bu ishdan qanday natija kutilayotganini tushunib yetmaganlar ham bor edi. Ha, inson ruhiyati shunday. Ayniqsa, islohotlar borasida odamlar o‘zgarishlarni o‘z hayotida ko‘rib, his qilmaguncha ishonmaydi.

Biriktirilgan hududlar yoppasiga va shiddat bilan Prezidentimiz topshirig‘ini bajarishga kirishib ketdi. Viloyat hokimlari, mutasaddilar, tadbirkorlar, hatto quruvchilar o‘ziga biriktirilgan tumanlarga ko‘chib keldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sal o‘tmay, Qoraqalpog‘istondagi ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda viloyatlar tomonidan fabrika, maktab, bog‘cha, kutubxona va boshqa ijtimoiy obyektlar qurilib, foydalanishga topshirilayotgani haqida xabarlar tarqala boshladi. Hatto to‘ylar, tadbirlarda “baraka topishsin” degan minnatdorliklar aytiladigan bo‘ldi. Kambag‘al, ijtimoiy yordamga muhtoj, uy-joyi yaroqsiz ahvolga kelib qolgan oilalarga uyalar qurib, tomi yopib berilayotgani esa umidsiz ko‘ngillarda ishonch uyg‘otdi. Shaharlar, mahallalar, ovullar, qishloqlardagi o‘zgarishlar, bunyodkorlik ishlari, obodlik odamlar qalbiga ko‘chdi.

MEHR ULASHGAN
QAROR

Bizningcha, davlatimiz va hukumatimiz tarixida ilgari bunday qaror qabul qilinmagan. Bu o‘rinda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish va mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini nazarda tutaymiz. Mazkur qaror Prezidentimizning 2022-yil 1-noyabrda “Orolbo‘yi mintaqasini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, Qoraqalpog‘istonda o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida aniqlangan sharoitni og‘ir oilalar va fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, ovul hamda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida chiqarilgan.

Qarorda Qoraqalpog‘istonning Nukus shahri va Bo‘zatov, Qorao‘zak, Kegeyli, Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l, Mo‘ynoq, Nukus, Taxiotosh, Taxtako‘pir, Xo‘jayli, Chimboy, Shumanay tumanlari viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga biriktirilgani o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, qaror asosida hududdagi turmush sharoiti og‘ir 21 mingdan ortiq

Bugun Kegeyli tumaniga borsangiz, andijonliklar qurgan fabrika, Nukus tumanida samarqandliklar qurgan masjid yoki kutubxona, Mo‘ynoqda Toshkent viloyati mehnatkashlari tomonidan barpo etilgan “Do‘stlik bog‘i”, maktab, sport maydoni deya ko‘rsatadi odamlar.

Darhaqiqat, samarqandliklar tomonidan Nukus tumanidagi 6,5 gektar maydonda qurilgan “Xotira maydoni”, “Imom Eshon” masjidi, 90 o‘rinli Urgut mehmonxonasi, yirik savdo majmuasini o‘z ichiga olgan “Dehqon bozori”, mahalla guzari va qator yangi binolar foydalanishga topshirildi.

Gastronomik turizmni rivojlantirish maqsadida tuman markazida “Samarqand osh” markazi ochildi. Viloyat mahalliy byudjeti mablag‘i hisobidan Nukus tumani markaziy



Kegeyli tumani Andijon viloyatiga biriktirilgan. Andijonlik tadbirkor tomonidan tumanning Aqtuba ovulida 2022-yil dekabrda foydalanishga topshirilgan, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasida bugun 130 kishi ish bilan ta‘minlangan. Ulardan 110 nafari xotin-qizlar. 80 xotin-qiz Andijon viloyatiga borib, kasb-hunar sirlarini o‘rganib keldi. Korxonada kuniga 1500 ta tayyor mahsulot ishlab chiqariladi. 2024-yilda mahsulotlarni eksport qilish bo‘yicha rossiyalik hamkorlar bilan shartnoma tuzilgani ishchilarning ham manfaatdorligini oshirdi.

Shumanay tumani Xorazm viloyatiga biriktirilgan. Qo‘shnilar tomonidan ham hududni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikda ishlab

obyektlar aholiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yer unumdorligini oshirish, yovvoyi to‘qaylar atrofida yangi yer o‘zlashtirish, suv taqisligi muammosini bartaraf etish masalalariga e‘tibor qaratildi.

Suv Bo‘zatov uchun hayot-mamot masalasidir. Farg‘ona viloyati mahalliy budjeti hisobidan suv olib kelindi. Buning uchun o‘n yillar davomida foydalanilmay yotgan ariqlar tozalandi.

Farg‘onaliklar o‘ndan ortiq ijtimoiy obyektni foydalanishga topshirdi. Masalan, “Qusxanotov” OFY hududida Farg‘ona viloyati hokimligi mablag‘i hisobidan 9-maktabgacha ta‘lim tashkiloti va 5-maktabda kapital rekonstruksiya ishlari bajarildi. Bugun ovul bolalari uchun barcha qulay sharoit yaratilgan.

Prezidentimizning shu bir tashabbusi ortidan shahar va tumanlarda keng ko‘lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari bajarildi. Mahallalar, ovullar qiyofasi o‘zgardi, yangi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini boshladi. Investitsiyalar kirib keldi, odamlar ishli bo‘ldi, hayoti o‘zgardi... Yuqorida ulardan ba‘zilarini misol sifatida keltirdik, xolos.

Maqolani bejiz odamlarni nima birlashtirishi haqidagi savol bilan boshlamadik. Eng muhimi va ahamiyatlisi, Orolbo‘yi nafaqat bunyodkorlik, balki do‘stlik va hamjihatlik, o‘zaro mehr-oqibat maskaniga aylandi. Do‘st ko‘magi bilan og‘iri yengil, mushkuli oson bo‘lgan insonlar qalbida minnatdorlik tuyg‘usi ildiz otdi. Birgalikda o‘tkazilayotgan to‘y-ma‘rakalar, bayram tantanalari o‘zbek va qoraqalpog‘ xalqlarini yanada jipslashtirdi, qon-qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamladi. Qoraqalpog‘istonliklarning boshqa viloyatlarga, viloyatliklarning esa Qoraqalpog‘istonga bordi-

Bugun esa hamjihatlikda yaratilgan moddiy ne‘matlarga ikki xalq o‘rtasidagi og‘izburchilik, do‘stlik va mehr-oqibat kabi ma‘naviy ne‘matlar yanada ko‘rkamlilik, yangicha mazmun-mohiyat baxsh etib turibdi.

DAVLATLINING
QO‘NOG‘I QO‘SH KELADI

Aslida, maqolani shu joyda yakunlab turgandim. Lekin qoraqalpog‘istonliklarning IV Toshkent xalqaro investitsiya forumidan keyingi quvunch va hayajoni, ijtimoiy tarmoqlar orqali baralla bildirayotgan mamnuviyat, minnatdorigi mavzuni yangi rakursda davom ettirishga undadi.

Darhaqiqat, yaqindagina bo‘lib o‘tgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham hududni rivojlantirish masalasiga yana bir bor e‘tibor qaratildi. “Boston Consulting Group” kompaniyasi bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘istonni 2035-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqilgani ma‘lum qilindi.

Forum doirasida o‘tkazilgan “Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi: mavjud holat, o‘shish yo‘nalishlari va kelajakdagi imkoniyatlar” mavzusidagi panel sessiyasida hududning iqtisodiy, investitsiyaviy salohiyati, ustuvor yo‘nalishlar va xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar xususida to‘liq ma‘lumot berildi.

— Mazkur sessiya aynan Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududga xorijlik investorlarni jalb qilishga qaratildi, — deydi qoraqalpog‘istonlik yosh tadbirkor, “Biogumus” fermer xo‘jaligi rahbari Sherzod Niyazimbetov. — Biz qishloq xo‘jaligi vakilimiz. Bugungi kunda pomidor yetishtiramiz va Italiya, Fransiya, Germaniyaga eksport qilamiz. Mahsulotimiz dunyo bozorida raqobatbardosh. Erishayotgan yutuqlarimizning barchasi yosh tadbirkorlarga qaratilayotgan e‘tibor mahsulidir. Bizga yer ajratish, imtiyozli kredit, soliq imtiyozlari va logistika masalalarida berilayotgan imkoniyatlar faoliyatimizni yanada rivojlantirish va kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bugungi xo‘jaligimizda 200 dan ortiq kishi ish bilan ta‘minlangan. Ularning aksariyati Nukus tumanida yashovchi xotin-qizlardir. Ushbu tadbir xorijlik hamkorlarimiz safi yanada kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi, albatta.

Forum doirasida farmatsevtika, turizm, sanoat va qayta ishlash, qurilish, ta‘lim, agrosanoat va ekologiya sohalarida qator yirik investitsiya loyiholari bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

qiladi. Bu orqali mintaqada yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi hamda jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirilishi ta‘minlanadi.

Bu hali hammasi emas. Gap shundaki, forum mazmun-mohiyati jihatidan Qoraqalpog‘istonda ham davom etdi. Aniqlik, Nukus shahridagi “Oq qush” majmuasida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Jahon banki hamda Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti hamkorligida “O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi sharoitida “aqli” qishloq xo‘jaligi” mavzusida seminar-trening bo‘lib o‘tdi. Tadbirda vazirlik tizimidagi oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, Jahon banki vakillari, xalqaro hamkor tashkilotlar va xorijlik ekspertlar ishtirok etdi.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida o‘tkazilgan sessiyada investorlar Qoraqalpog‘istonga kelib, Orolbo‘yining ulkan salohiyati bilan tanishish va keng imkoniyatlar ko‘lamini baholashga taklif etilgan edi. Ushbu forumning uzviy davomi sifatida tashkil etilgan tadbirda xalqaro tajribalar asosida O‘zbekistonda agrar va oziq-ovqat sohasida iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish, unga mos “aqli” qishloq xo‘jaligi amaliyotini qo‘llash, Orolbo‘yi mintaqasida qulay agro-ekotizimni yaratish hamda bu boradagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Tadbir doirasida mehmonlar Nukus shahridagi “Qoraqalpog‘ basaltwool” korxonasi, shuningdek, I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘ davlat san‘at muzeyida bo‘lib, respublikaning sanoat, turizm yo‘nalishlaridagi imkoniyatlari bilan tanishdi. Ishirokchilar uchun Mo‘ynoq — Orol dengizining qurigan hududi va Orol dengizi tarixi muzeyiga tur tashkil etildi.

Qoraqalpog‘larda “Davlatning qo‘nog‘i qo‘sh keladi” degan maqol bor. O‘zbekiston, butun viloyatlar mazkur hududning rivojlanishi uchun javlon urayotgan bir paytda salohiyatli xorijlik investorlar ham shu makonga yo‘nalmog‘da. Albatta, forumda ta‘kidlanganidek, Qoraqalpog‘istonga kiritilayotgan sarmoya yangi ish o‘rinlari ochish, mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning kelajagini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

To‘g‘risi, odamlaro t‘gan yili Qoraqalpog‘iston uchun chin ma‘noda barakali va tarixiy voqealarga boy davr bo‘lganini hali-hanuz e‘tirof etadi. Chunki yil davomida qator yirik loyihalar, yangi sanoat korxonalari, turizm maskanlari, energetika quvvatlari, axborot texnologiyalari parki ishga tushirildi. Amudaryo uzra Qoraqalpog‘istonni Xorazm bilan bog‘laydigan uzunligi 423 metr bo‘lgan yangi avtomobil va temir yo‘l ko‘prigi foydalanishga topshirildi. Bu yangilanishlar xalqimizda cheksiz quvunch, faxr va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otdi.

Bundan tashqari, Taxtako‘pir tumanidagi Qarateren ko‘li bo‘yida yangi etno-turistik majmaa barpo etildi. Nukus shahridagi “Oqqush” majmuasida diametri 42, balandligi 22 metri tashkil etadigan qoraqalpog‘ milliy o‘tovi tiklanib, Ginnessning rekordlar kitobiga kiritildi. “Qo‘ng‘irot — Beyneu” avtomobil yo‘lining yangidan qurilgan 240 kilometr qismi foydalanishga topshirildi. Ochig‘i, Qoraqalpog‘istonda keyingi yillarda bo‘y ko‘rsatgan bunday o‘zgarishlar, odamlarimiz hayotiga yangicha mazmun, farovonlik, qalblariga quvunch va shukronalik, ertangi kunga ishonch olib kirgan tarixiy yangilanishlar ro‘yxatini yana uzoq davom ettirish mumkin. Asosiysi, bu yerda boshlangan yangi taraqqiyot odimlari, Orolning qurigan tubida kun sayin bo‘y cho‘zib, sahroni bo‘stonga aylantirayotgan yashil olam qoraqalpog‘istonliklarning turmush tutumi, tafakkuriga ko‘chib, g‘ayrat-shijoati, tadbirkorlik ruhiga oziq beryapti.

2025-yilning birinchi yarmidayoq erishilayotgan undan kam bo‘lmagan natijalar esa kattayu kichikni shukrona bilan yashashga, sharoitlar, imkoniyatlar, barcha-barcha ne‘matlarning qadriga yetishga undamoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



keldisi tashkil etildi. Bu tajriba almashish ko‘ngillarni yaqinlashtirdi, maqsadlarni birlashtirdi. Xullas, bir-biriga qon-qardosh, quda-anda bo‘lib ketgan o‘zbek va qoraqalpog‘ xalqlarining bordi-keldisi ham yanada kengaydi.

Albatta, bularning barchasi Qoraqalpog‘istonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xorijiy sarmoyalarni jalb etishda muhim qadam bo‘lib xizmat



YO'L QURGAN ELDA AZIZ

YOXUD TARAQQIYOTNI KAFOLATLAYDIGAN
INFRATUZILMA QANDAY RIVOJLANMOQDA?

Yo'l nafaqat manzilni manzillarga ulovchi muhim infratuzilma, balki iqtisodiyotning muhim qon tomiridir. Davlatimiz rahbari aynan yo'l infratuzilmasini yaxshilashga jiddiy e'tibor qaratdi. Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 14-fevraldagi "2017-2018-yillarda mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ikki yilda (e'tibor bering: ikki yil!) butun mamlakat yo'l infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. Qarorda Qoraqalpog'iston bo'yicha 295 kilometr, Andijon viloyati 324 kilometr, Buxoro viloyati 439 kilometr, Jizzax viloyati 222 kilometr, Qashqadaryo viloyati 679 kilometr, Navoiy viloyati 216 kilometr, Namangan viloyati 309 kilometr, Samarqand viloyati 479 kilometr, Surxondaryo viloyati 535 kilometr, Sirdaryo viloyati 267 kilometr, Toshkent viloyati 516 kilometr, Farg'ona viloyati 520 kilometr, Xorazm viloyati 321 kilometr, Toshkent shahri bo'yicha 332 kilometr yo'l va ko'chalarni ta'mirlash nazarda tutilgan edi.

Ushbu tashabbus qisqa muddatda samarasini ko'rsatdi. Nafaqat rahbarlar yuradigan markaziy yo'llar, balki mamlakatning chekka hududlaridagi ko'cha-ko'ylar ham tekis va ravon bo'ldi. Haydovchilar bilan birga yo'lovchilarning ham asabini buzadigan o'ydim-chuqur yo'llar ta'mirlandi. Viloyat markazlarini tuman hamda shaharlar bilan, tumanlar markazlarini qishloq va ovullar bilan bog'lovchi yo'llarga asfalt yotqizildi. Bunday o'zgarishlarga yuzlab misol keltirish mumkin. Buni har kim o'zi yashayotgan hudud misolida ko'rib, his qilib turibdi. Aytmoqchimizki, yo'llarning ravonlashuvi odamlar kayfiyati bilan birga manzillar qiyofasiga ham ta'sir qilmoqda. Mudrab yotgan chekka hududlarga ham jo'shqin hayot nafasi kirib kelmoqda.

Manzil yanada yaqin
bo'ladi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizdagi avtomobil yo'llarining jami uzunligi 184 ming kilometrdan ziyod. Xalqaro ahamiyatga ega yo'llarimizning 25 foizidan katta yuklama ostida foydalanilyapti.

Masalan, kuniga 32 ming avtomobil o'tishiga mo'ljallangan "Toshkent — Samarqand" yo'lida 45 mingta transport qatnayapti. Tirbandlik sababli manzilga yetish uchun ba'zan 6 soatgacha vaqt ketyapti. 2030-yilga borib, harakat jadalligi 80 mingdan oshishi mumkin. Shu bois, yo'l sohasidagi 2017-yildan boshlangan ulkan islohotlar keyingi yillarda ham izchil davom ettirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 10-oktabrdagi tegishli qarorida zamonaviy avtomobil yo'llarini tashkil etish istiqbollari

“

Agar yo'l qurilishi bo'yicha qilinayotgan ishlar haqida ko'proq ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz, internetdagi qidiruv tugmasini bosib, bir dunyo ma'lumotga ko'zingiz tushadi. Jumladan, A-380 "G'uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu" xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'lining Romitan, Jondor va Peshku tumanlari hududidan o'tuvchi 85 kilometrli qismini 2 tasmali asfalt-beton qoplamali yo'ldan 4 tasmali sement-beton qoplamali avtomobil yo'liga o'tkazish loyihasi amalga oshirildi.

belgilangan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchi navbatda, aholiga qulaylik yaratish, milliy iqtisodiyotda logistika zanjirini mustahkamlash.

Mazkur qarorga muvofiq, Toshkentdan Samarqand va Andijonga eltuvchi muqobil yo'llar qurish ustida ishlar bajarilmoqda. Jumladan, Jahon banki ishtirokida "Toshkent — Andijon" yo'li loyihalashtirildi. Yanvarda uni qurish bo'yicha xalqaro tender e'lon qilindi. Qisqa vaqtda unga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy kompaniya qiziqish bildirdi.

Umumiy uzunligi 314 kilometr bo'lgan bu magistral foydalanishga topshirilishi natijasida Toshkent bilan Andijon orasidagi qatnov vaqti



5 soatdan 3 soatgacha qisqaradi. Shuningdek, bu yalpi ichki mahsulotni 2,6 foiz oshirib, avtohalokatlarni 40 foiz kamaytirish imkonini beradi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yo'lining Romitan, Jondor va Peshku tumanlari hududidan o'tuvchi 85 kilometrli qismini 2 tasmali asfalt-beton qoplamali yo'ldan 4 tasmali sement-beton qoplamali avtomobil yo'liga o'tkazish loyihasi amalga oshirildi.

Mazkur avtomobil yo'li xalqaro transport yo'nalishining O'zbekistondagi qismi bo'lib, u orqali Markaziy va Sharqiy Yevropa, Rossiya, Ukraina va Qozog'istonga chiqish ta'minlanadi. O'zbekiston orqali transafg'on transport yo'nalishiga bog'lanadi. Ushbu avtomagistral Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari hududidan o'tib, davlatlararo, viloyatlararo aloqalarni ta'minlashda ham muhim.

Yana bir ulkan qurilish Surxondaryoda amalga oshirilmoqda. Darband qishlog'idan boshlanuvchi "Darband — Denov" yo'nalishi bo'yicha 4R105 avtomobil yo'li rekonstruksiya qilinmoqda. Uzunligi 111 kilometr bo'lgan yo'l 2027-yili foydalanishga topshiriladi. Uning qariyb 108 kilometrini sement-beton qoplama bilan rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Yirik loyihani amalga oshirish chog'ida 26 ta ko'prikl, 2 ta yo'l o'tkazgich, 114 ta suv quvuri, ikkita avtotransport vositalarining vazni va hajm parametrlarini qayd etuvchi nazorat posti barpo etiladi.

Orolbo'yida ham yo'l sohasida katta loyiha amalga oshirildi: Qo'ng'iro't tumanidan o'tgan A-380 "G'uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu" avtomobil yo'lining 964-1204 kilometri oralig'idagi (240 kilometr) qismi sement-beton qoplama bilan rekonstruksiya qilindi.

Bu ma'lumotlarni bejiz keltirmadik. Yo'l borgan joyga obodlik kirib boradi. Infratuzilma

rivojlanadi. Do'konlar, restoranlar, xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalar ish boshlaydi. Yo'l bo'yida yashovchi aholining turmush tarziga yengillik kiradi. Minglab yangi ish o'rinlari ochiladi.

Yo'l yurib, dam olasiz

O'tgan yili do'stlarimiz bilan avtomobilda tog'lar o'lkasi — Tojikistonga sayohat qildik. Toshkent viloyatidagi chegara postidan o'tib, qo'shni mamlakatga kirib bordik. Birinchi e'tibor qaratganimiz yo'lining sifati bo'ldi. Tan olib aytilish kerak: ikki tasmali yo'l juda ravon. Lekin qatnov kam. Dovondan yurak hovuchlab o'tdik. Ikki tarafkama yo'l qurilishida xavfsizlik choralarini ko'rmagan.

Yo'l bo'yi odamlar bilan suhbatlashganimizda, chet elga chiqadigan tojikistonliklar Surxondaryo orqali yurishni ma'qul ko'rarkan. Ularning aytishicha, O'zbekistonda yo'l infratuzilmasi yaxshi rivojlangan — Surxondaryodan Toshkentga qadar borsangiz charchamaydiz, aksincha, O'zbekistonning go'zal tabiatini, obod manzillarini ko'rib, bahri dilingiz ochiladi. Yo'l bo'yi minglab restoranlar, mehmonxonalar, savdo shoxobchalari kecha-yu kunduz faoliyat yuritadi.

Suhbatdoshlarimning gapini ayni haqiqat ekanini yurakdan his qilib turardim. Chunki o'zga mamlakat bilan taqqoslaganda yutuq va kamchiliklarimiz yaqqol ko'zga tashlanadi. Toshkent viloyatiga chegaradosh So'g'd viloyatidan Dushanbega borgunimizcha yo'l bo'yida sanoqli oshxonaga ko'zimiz tushdi. Mehmonxona esa umuman yo'q. Qo'shnilarimiz bejiz O'zbekiston yo'llaridan foydalanishni afzal bilmas ekan degan xulosaga keldik.

Bir necha asr muqaddam Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Yevropaga yo'l ochgan ipak yo'li ellarni ellarga yaqinlashtirib, ko'plab tamaddunlarga sababchi bo'lgan. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik kuchayishi, o'zaro savdo-sotiqning gullab-yashnashiga zamin hozirlangan edi. Shuning uchun ham asrlar qa'ridan bugungacha yo'l tortib kelayotgan Buyuk ipak yo'li hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan, balki unga zarurat yanada kuchaymoqda.

Muhim xalqaro yo'llar kesishadigan chorahada joylashgan O'zbekiston uchun yo'llarimizning soz va xalqaro talablariga mos bo'lishi nafaqat iqtisodiyotimiz yuksalishiga, balki xalqaro hamkorlikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yunus BO'RONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bir o'lkaki...

VOHANING "YASHIL BELBOG" I
MUSTAHKAMLANMOQDA

Prezidentimizning 2024-yil 27-martdagi "Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Surxondaryo viloyatida o'rmonlar tabiiy tiklanishga, yo'lovchi uchun 55 ming 60 gektar, eroziyaga qarshi kurashish uchun — 4500, dorivor o'simliklar plantatsiyasini tashkil etishga — 1500, agrar o'rmonchilikka — 5600, sanoatbop o'rmonlar barpo qilishga 900 gektar yer berilgan.

Shundan kelib chiqib, vohadagi Boysun, Qiziriq, Uzun, Bobotog', Hisor davlat o'rmon xo'jaliklari, shuningdek, "Yuqori To'palang" va "Bobotog'" milliy tabiat bog'larida "Yashil loyiha" loyihalash instituti 6 ta yo'nalish bo'yicha ekologik tasniflash ishlarini bajarmoqda. Jarayonda o'rmonlarning ekologik holati baholalanib, ularni tiklash, saqlash va barqaror rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilgan.

Mazkur qarorga ko'ra, O'rmon xo'jaligi agentligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasini amalga oshirish guruhi tuzilgan.

— Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan hududlarda

loyihaning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi, muvofiqlashtirilishi, boshqarilishi hamda jalb etilgan qarz mablag'i va grantlardan maqsadli hamda samarali foydalanish belgilab olingan, — deydi "Yashil loyiha" loyihalash instituti bo'lim boshlig'i Zafar Rahmatullayev. — Loyihani amalga oshirish davrida monitoring va hisobotlar yuritilishi, qarz mablag'i o'z vaqtida qaytarilishi uchun mas'ul ijro etuvchi organlar ham belgilangan.

Loyiha doirasida hududlarni ekologik tasniflash ishlari mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajriba va xalqaro mezonlarga ko'ra, uch tomonlama yondashuv asosida bajariladi. Bu kabi yondashuvlar hududlarning tabiiy-biologik, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni har tomonlama qamrab oladi. Ushbu kompleks yondashuv orqali ekologik tasniflash natijalari yanada aniq, samarali va uzoq



muddatli rejarlar uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tasniflash natijalari kelgusidagi tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini to'g'ri rejalashtirish va hududdan barqaror foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzun davlat o'rmon xo'jaligi 1929-yili tashkil etilgan. Umumiy maydoni 106 ming 451 gektar.

Shundan 20 ming gektardan ortig'i o'rmondan iborat. Xo'jalik tarkibida Sangardak, Uzun va Zevar o'rmon bo'limlari faoliyat yuritadi. Hozir Sariosiyo tumanidagi "Qorabuloq" uchastkasida ekologik tasniflash ishlari bajarilmoqda.

— Ekologik tasniflash ishlari doirasida voha shimolidagi eroziyaga uchragan yerda ham muayyan ishlar qilindi. Bu jarayonda eroziyaning kelib chiqish sabablari, ko'lami va

turi aniqlanib, omillarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratildi, — deydi Ekoklassifikatsiya loyihasi ishchi guruhi rahbari To'liq Quدراتov. — Xususan, yer yuzasini muhofaza qilish, tuproq tuzilishini yaxshilash va o'simlik qoplamalarini tiklash bo'yicha amaliy taktiklar ishlab chiqildi. Eroziyaga qarshi agrotexnik, gidroteknika va biologik choralar tavsiya qilindi. Bunda, asosan, mahalliy sharoitga mos keluvchi, barqaror va uzoq muddatli yechimlarga alohida ustuvorlik berilayotir.

"O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasi doirasidagi amaliy ishlar viloyatning muhim tabiiy hududlaridan biri — "Yuqori To'palang" milliy tabiat bog'ida ham bajariladi. Vohadagi mazkur bog' biologik xilma-xilligi, noyob ekotizmi va tabiiy resurslarga boyligi bilan alohida ahamiyatga ega.

— Loyiha doirasida mutaxassislar ishtirokida 4000 gektardan ziyod maydonda ekologik o'rganish va tasniflash ishlari bajarildi. Jarayonda yer resurslarining holati, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq tarkibi hamda gidrologik xususiyatlar sinchiklab tahlil qilindi. Mutaxassislar ekoturizm salohiyatiga ega maskanlarni ham o'rgandi va barqaror foydalanish mexanizmlari taklif qilindi, — deydi "Yashil loyiha" loyihalash instituti monitoring bo'limi birinchi toifali mutaxassisi Elbek Musayev.

Xo'jaliklardagi chora-tadbirlar atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va ekoturizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, hududda o'rmonlarni tabiiy tiklashga qaratilgan maxsus loyiha ishlab chiqilmoqda.

— Loyiha doirasida bog'ning biologik xilma-xilligi saqlanishi va tabiiy muhit barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Loyiha, asosan, milliy tabiat bog'i hududidagi yer degradatsiyasini kamaytirish, tabiiy tiklanish jarayonini faollashtirish hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan, — deydi "Yuqori To'palang" milliy tabiat bog'i ilmiy xodimi Xidirali Rahmatov.

Uzun davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli yerda ham hozir 50 xil turli manzarali va mevali daraxt ko'chatlari parvarishlanmoqda. Bu nihollar o'rmon landshaftini boyitish, tabiiy muhitni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlashda muhim o'rin tutadi.

O'rmon xo'jaligida dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalish ham "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi va tabiiy resurslarga oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

— O'rmon xo'jaligida tuproq va iqlim sharoitiga moslashtirilgan manzarali daraxtlar, buta o'simliklari hamda eksportbop ko'chatlarning yangi navlarini yaratish bo'yicha seleksiya ishlari samaradorlikka erishishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu tadbirlar xalq xo'jaligi, sanoat, tibbiyot va boshqa sohalar uchun zarur yuqori sifatl mahsulotlar yetkazib berishni ta'minlashga qaratilgan, — deydi Uzun davlat o'rmon xo'jaligi bosh o'rmonchisi Isomiddin G'oyipov.

"O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasi mamlakat ekologik barqarorligini ta'minlash va bioxilma-xillikni saqlash borasida muhim ahamiyatga ega. U nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish, balki aholining iqtisodiy-ijtimoiy sharoitini yaxshilashga ham zamin yaratadi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O‘ZBEKISTON JAHON SAHNASIDA

DIPLOMATIYA, YUKSALISH VA TARIXIY G‘ALABA



Dilnozaxon KATTAXONOVA,
Yoshlar ishlari agentligi
direktorining birinchi o‘rinbosari

So‘nggi yillarda O‘zbekiston xalqaro maydonda yangi nafas, yangi imij va yangicha qiyofa bilan namoyon bo‘lmoqda. Buni yaqin kunlarda bo‘lib o‘tgan voqealar yana bir bor tasdiqladi. Masalan, poytaxtimizning zamonaviy stadioni tomoshabinlar bilan har qachongidan to‘lib-toshdi. Hayajonli uchrashuv va bellashuv so‘ngidagi marosimlar unutilmas voqeaga

aylandi. Tarixiy natija bayramga ulanib ketdi. Mazkur musobaqa poytaxtimizda o‘tkazilgan yirik iqtisodiy forumga hamohang bo‘ldi. Dunyo O‘zbekistonni ham sport, ham iqtisodiy, ham siyosiy tadbirlar asnosida diqqat bilan kuzatdi. Bular o‘z-o‘zidan bo‘layotgan, qo‘lga kiritilayotgan natijalar emas, albatta. Buning ortida uzoqni ko‘zlagan izchil islohotlar va davlatimizning ochiq, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosati mujassam.

Bu tizimli va shiddatli islohotlar xalqaro tashkilotlarning turli tadqiqotlari va reytinglarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Jumladan, “Brand Finance” xalqaro tahlil agentligi e‘lon qilgan “Global Soft Power Index 2025” hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston “milliy brend” eng tez o‘sadigan ilg‘or 3 mamlakat qatoriga kirdi.

Bundan tashqari, “StartupBlink”ning yaqinda e‘lon qilingan “Global Startup Ecosystem Index 2025” hisobotida O‘zbekiston tarixda ilk bor dunyodagi startap ekotizimlarining yetakchi 100 taligidan joy oldi. Bu ham, shubhasiz, mamlakatimizdagi innovatsion siyosat va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sa‘y-harakatlar samarasidir.



O‘zbekiston rekord darajadagi o‘shir sur‘atini namoyon etib, Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan startap markazi, shu bilan birga, jahon miqyosidagi asosiy yutuq egalaridan biri bo‘ldi. Ushbu natijalar yurtimizdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy islohotlar va inson kapitaliga berilayotgan e‘tibor bilan bog‘liq. Bunday obro‘-e‘tibor xalqaro investorlar, ta‘lim muassasalari va tashkilotlar uchun O‘zbekistonni yanada qiziqarli hamkorga aylantirmoqda.

Ushbu ko‘rsatkich yurtimizning global ta‘lim maydonidagi faol ishtiroki bilan birga, davlat siyosatining ochiqchiligi va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar samarasini, O‘zbekiston yoshlari dunyoqarashi, intilishi va raqobatga tayyorligini, ta‘limga sarmoya kiritishga ishonch hamda kelajakka yuksak umidini namoyon etadi.

Chet elda tahsil olayotgan o‘zbekistonlik yoshlar bilim va malakaga ega bo‘lish barobarida, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor mutaxassis sifatida shakllanmoqda.

Global ta‘lim maydonidagi o‘rnimiz

UNESCO Statistika instituti tomonidan o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotga ko‘ra, chet elda ta‘lim olayotgan o‘zbekistonlik talabalar soni 150 ming 500 ga yetgan. Bu raqam O‘zbekistonni jahonda talabalari chet elda o‘qiyotgan mamlakatlar orasida 3-o‘ringa olib chiqqan. Birinchi va ikkinchi o‘rinlarni Xitoy (1,05 million talaba) hamda Hindiston (621 ming 600 talaba) egallab turibdi.

Imkoniyatlar eshigi

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O‘zbekistonning iqtisodiy ochiqchiligi va samoyaviy jozibadorligining amaldagi tasdiqi bo‘ldi. 100 ga yaqin mamlakatdan kelgan yetakchi kompaniyalar, moliyaviy guruhlar yurtimizdagi islohotlar, qulay biznes muhiti hamda yangi imkoniyatlar bilan tanishdi. Yirik xalqaro anjuman doirasida umumiy qiymati 30,5 milliard dollarlik investitsiya va savdo bitimlari imzolandi.



va biznes sohalarini o‘zlashtirishga jiddiy e‘tibor qaratishi zarur.

Ilk yo‘llanma

O‘zbekiston milliy futbol terma jamoasining tarixda ilk bor jahon chempionatiga yo‘llanma olishi mamlakatimiz sporti tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo‘ldi. BAA va Qatarga qarshi oxirgi o‘yinlardagi natijalar jamoamiz salohiyatini, xalqimiz birdamligi va ruhiy yuksalishini namoyish etdi.

Sport nafaqat raqobat, balki milliy g‘urur, madaniyat va diplomatik ta‘simning kuchli vositasidir. Jahon chempionatidagi ishtirok mamlakatimiz uchun yangi xalqaro eshiklarni ochishi, madaniy almashinuv va yoshlar diplomatiyasi uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Strategik qarash va ruhiy uyg‘unlik

Yuqoridagi voqea va natijalardan kelib chiqib, bunday xulosa qilish mumkin: O‘zbekiston tashqi siyosatda muvozanat, ochiqlik va tashabbuskorlik yo‘lini tanlagan. Bu nafaqat rasmiy hujjatlar, balki xalq qalbidan joy olgan g‘oya va tashabbuslar bilan amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz bir paytning o‘zida diplomatiya, ta‘lim, investitsiya, innovatsiya, yoshlar siyosati va sport sohalari bo‘yicha global sahnada ildamlamoqda.

Bugungi O‘zbekiston o‘z ovozi ega, g‘oyalari vositasida dunyo bilan muloqot qilayotgan zamonaviy davlatdir. Bu jarayonning markazida esa ilhomlangan, bilimli va tashabbuskor yoshlar turibdi.



Kamolot pillapoyasi



ILMGA E‘TIBOR – KELAJAKKA INVESTITSIYA

Dilnoza NARZIQULOVA,
pedagogika fanlari doktori,
professor

O‘zbekistonning dunyo maydoniga chiqishi uchun bugun zamonaviy ta‘lim tizimi oldiga qator muhim vazirlar qo‘yilgan. Shulardan biri rivojlangan davlatlar ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlashdir. Shundan kelib chiqib, yaqinda AQSHning Minnesota universitetida bo‘ldik.

Universitetda bir necha o‘zbekistonlik tahsil olayotir. Muloqot chog‘ida ulardagi jo‘shqinlik, kreativlik, ilm olishga intilish, ishtiyoq, tashabbuskorlik, matonat va vatanparvarlikni ko‘rib, ayniqsa, shulardan biri — Nurbekning fikrini eshitib, juda g‘ururlandik.

U Minnesota universitetida axborot texnologiyalari sohasida tahsil olayotganini, o‘qishni bitirib, vatanga qaytib, kambag‘allikni qisqartirish maqsadida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yangi samarali mexanizmlari ustida ishlash niyatida ekanini faxr bilan gapirib berdi.

Ko‘pincha chet elda tahsil olgan talabalar yurtiga qaytmaydi deb eshitamiz. Ammo Dreksel universitetida tahsil olayotgan Bekzod O‘zbekistonda ekologik sohada ilmiy tadqiqot olib borishini, tez kunlarda ota yurtga qaytib, olgan bilimlarini mamlakatimiz rivoji yo‘lida tatbiq etishini ta’kidladi.

Minnesota universitetida o‘tkazilgan seminar-trening, davra subhatlari, podkastlarda o‘zbekistonlik talabalarning faolligi, hozirjavoblighi, bir necha chet tillarida erkin subhatlasha olishi yangi O‘zbekistonda kun sayin dunyo hamjamiyatida o‘z so‘zi va o‘miga

ega bo‘layotgan tadbirkor, ishbilamon, ilmiy yoshlar qatlami shakllanganidan dalolat beradi.

Yoshlarimizning ilmga chanqoqligi, madaniyati, bag‘rikengligi, kreativligidan universitet vakillari mamnun, ular haqida so‘z ketganda maqtovlar eshitib, qalbim g‘ururga to‘ldi, o‘z begimning farzandlaridan faxrlandim. Xorijda kursdoshim bilan hamsuhbat bo‘ldim. Chet elda ota bolasiga qattiq gapirsa, farzandi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilarkan. Aynan mana shu tizim bo‘yicha maktablarda tushuntirish ishlari ham olib borilarkan.

Yaqinda ikki-uch oila farzandlarini O‘zbekistonga qaytarib, maktablarga joylashtiribdi. Bu bilan aytmoqchimanki, asrlar mobaynida xalqimizning qadriyatlarini, an‘analari, madaniy merosi va urf-odatlarini asosida shakllangan milliy tarbiyamiz bor. Tarbiya jamiyatning kelajagini ta‘minlash, o‘ziga xosligini saqlab qolish va milliy qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish maqsadlarini ko‘zlaydi. Ota-onaning ko‘ziga tik qaramaslik yoki kattalarga gap qaytarmaslik aynan mentalitetimizga xos milliy tarbiyaning bir ko‘rinishi.

Ulug‘ ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Agar puling ko‘p bo‘lsa, farzandingni chet elda o‘qit”, degan gapi bugun ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Buning amaliy ifodasi O‘zbekistonda yoshlarga berilgan keng imkoniyatlar doirasida yuzaga chiqmoqda. Har yili iqtidorli yoshlarning 500 nafari chet ellardagi nufuzli universitetlarda ta‘lim olishi uchun shart-sharoit yaratilib, mablag‘ ajratilayotgani, milliy, zamonaviy, kreativ fikrlaydigan, raqobatbardosh, dunyo va mahalliy bozorda talabga javob beradigan, yuksak malakali va bilimli kadrlar tayyorlanishida ilmga sarmoya qilingan investitsiyalar yurtimiz tarixida yangi sahifa ochishi shubhasiz. Bu ishlar xalqimizning asriy orzulari, millatimiz ziyolilari, Behbudiydek ma‘rifatparvarlar armonlari ro‘yobga chiqishining amaliy isbotidir.

Bugun mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol, vatanparvar va zamonaviy bilimlar egasi etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘qitishga zamonaviy o‘quv dasturlari joriy etilib, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyati oshirilayotgani, ilmiy tadqiqot ishlari izchil qo‘llab-quvvatlanayotgani hamda xalqaro tajriba asosida pedagogik innovatsiyalar keng joriy etilayotgani bu boradagi ishlar samaradorligini oshirmoqda.



Feruza MADRAHIMOVA,
pedagogika fanlari doktori,
dotsent

Ushbu jarayonda Urganch davlat pedagogika institutida o‘quv, ilmiy, madaniy, sport va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarida erishilgan yutuqlarni sohadagi islohotlarning kichik amaliy natijalari deiyish mumkin. Ayniqsa, institutda ta‘lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, talabalarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini shakllantirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar e‘tiborga loyiq.

Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Urganch davlat pedagogika institutining kunduzgi ta‘lim shaklida tahsil olayotgan 2- va 3-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida, ya‘ni darslarning 4 kuni institutda, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilmoqda. Institut talabalari viloyatdagi 921 ta amaliyot obyektida, xususan, 368 ta davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti, 542 ta umumta‘lim va 11 ta ixtisoslashgan maktabda amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega. OTMdagi 19 ta ta‘lim yo‘nalishining barchasi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘quv rejasidagi fanlarga mos. Bu yondashuv

pedagogik ta‘lim sifatini oshirishda muhim qadam bo‘lib, bo‘ljak o‘qituvchilarda kasbiy o‘nikmalarni shakllantirish, dars jarayonini boshqarish, pedagogik vaziyatlarga to‘g‘ri yondashish kabi muhim jihatlarini egallash imkonini beradi. Eng asosiysi, “4+2” tizimi ta‘limda nazariya bilan amaliyot uyg‘unligini ta‘minlab, talabalarni maktab muhiti bilan yaqindan tanishtiradi, kelgusida malakali, mas‘uliyatli va zamonaviy talabga javob beradigan pedagog kadrlar sifatida shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Urganch davlat pedagogika institutida 19 ta bakalvriat ta‘lim yo‘nalishi va 11 ta magistratura mutaxassislighi bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Professor-o‘qituvchilarimiz dunyo OTMlarining yetakchi 300 taligiga kiruvchi 10 dan ortiq



xorijiy oliy ta‘lim muassasasining o‘quv reja va dasturlarini tahlil qilib, ularga asosan ta‘lim yo‘nalishlarining 100 ga yaqin o‘quv reja va dasturlarini takomillashtrirdi. Jumladan, Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Garvard universiteti, Stenford universiteti, Massachusets texnologiya instituti, Texas davlat universiteti (AQSH), Edinburg universiteti (Shotlandiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Portu universiteti (Portugaliya) dasturlari tahlil qilinib, yangi fanlar kiritildi. Shuningdek, o‘quv rejaralaridagi fan mavzulari mazkur oliy ta‘lim muassasalari dasturlari asosida boyitildi.

Institutda ilmiy va innovatsion faoliyatni tizimli yo‘lga qo‘yishda ilmiy salohiyatni oshirish, tadqiqot natijalarini nashr etish

va tijoriylashtirish, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim samaradorligini oshirish, professor-o‘qituvchilarning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy loyihalar, xalqaro grant va investitsiya loyihalari hamda ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2026-yilda ilmiy salohiyatni 40 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Oliy ta‘lim muassasasida 7 ta ixtisoslik bo‘yicha 150 ga yaqin tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchi tadqiqot olib bormoqda.

Joriy yil yakuniga qadar Urganch davlat pedagogika institutini 2025-yilda kompleks rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida bajarilishi kerak bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlar borasida tizimli ishlar davom ettirilyapti.



Institutda ta‘limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasiga ham alohida e‘tibor qaratilib, jumladan, Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazi, Incubation center, Modern educators kovorking markazlari tashkil etilgan.

Institut xalqaro maydondagi o‘mini tobora mustahkamlamoqda. Jumladan, UI GreenMetric, Times Higher Education reytinq tashkilotlari hamda Yevroosiyo pedagogika universitetlari assotsiatsiyasi a‘zosi.

Shuningdek, institut xorijiy davlatlardagi 14 ta oliy ta‘lim muassasasi va tashkilot bilan 50 dan ortiq hamkorlik memorandumini imzolagan. Xususan, yaqinda Londonda o‘tkazilgan “O‘zbekiston — Buyuk Britaniya ta‘lim forumi” doirasida Urganch davlat

pedagogika instituti va Norvich til o‘qitish instituti o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Institutda kadrlar salohiyatini oshirish borasida ham tizimli ishlar qilinmoqda. Jumladan, 2023-yilda 10 ga yaqin, 2024-yilda 20 ga yaqin hamda 2025-yilda qariyb 30 professor-o‘qituvchi nufuzli hamkor xorijiy universitetlarda malaka oshirdi hamda stajirovka dasturlarida ishtirok etdi. Xorijiy tajribani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadida chet ellik professorlar hamda soha mutaxassislarni jalb qilish tizimlari yo‘lga qo‘yilgan. 2023-yilda Rossiya va Turkiyadan 2, 2024-yilda Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Hindiston va Qozog‘istondan 9, 2025-yilda 11 professor hamda soha mutaxassisi dars jarayoniga jalb etildi.

Institutda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish uchun 2024/2025-o‘quv yilida 700 dan ortiq ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy tadbirlar, turli sport musobaqalari va intellektual bellashuvlar tashkil qilindi. Mazkur o‘quv yilida institut talabalari xalqaro va respublika miqyosidagi qator ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etib, faxrlri o‘rinlarni egallagan. Jumladan, xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida 4 talabamiz g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Yana ikki nafari Alisher Navoiy nomli, bir nafari Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, 60 ga yaqin iqtidorli talabamiz xalqaro va respublika miqyosidagi anjuman, forum hamda simpoziumlarda faol ishtirok etib, turli sovrin va yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, 82 nafari jahon va respublika chempionatlarida oltin, kumush va bronza medallar sohibi bo‘ldi.

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimga asoslangan jamiyat sari intilayotgan dunyoda pedagogik ta‘limning o‘rni va mas‘uliyati tobora katta. Bu jarayonda mamlakatimizdagi izchil va tizimli islohotlar pedagogika sohasini tubdan yangilash, zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan. Urganch davlat pedagogika instituti ushbu islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, ko‘plab ijobiy natijalarga erishmoqda. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, tajriba almashinuvi, xorijiy hamkorlikdagi loyihalar kengaytirilishi, talabalar uchun yaratilayotgan sharoit, ilmiy izlanishlar uchun muhit shakllantirilishi institutning o‘z maqsadlariga qat‘iy va bosqichma-bosqich erishayotganini ko‘rsatadi.



Buyuk mutafakkir bobomiz Abdurauf Fitratning ushbu fikrlari bugun ham dolzarbligicha qolmoqda. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni asosida “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida o‘tkazilgan “Dunyo tamadduniga ma‘rifatli xalq bilan” davra suhbatida bu haqda batafsil to‘xtalib o‘tildi. Mazkur ma‘naviy-ma‘rifiy anjuman, avvalo, fikrlar xilma-xilligi bilan ajralib turdi. Qolaversa, davlat idoralari rahbarlarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha mas‘ullari, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita hamda Xotin-qizlar qo‘mitasi mutasaddilarining ishtiroki bois, tadbir keng qamrovli, yangi g‘oya va takliflarga boy bo‘ldi. Quyida davra suhbatida bildirilgan mushohada va o‘zaro fikr almashuvlarni e‘tiboringizga havola etamiz.



“MILLATNI UYG‘OTISH UYG‘ONGANLARNING ISHIDIR”

Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni oshirishga yo‘naltirilgan loyiha

Begmat OCHILOV,
Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi bo‘lim boshlig‘i:



Shu sababli “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida xalqimizning badiiy savodxonlik darajasini oshirish, yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish, yurtimizdagi yangilanishlarning mazmun-mohiyatini aholi ongiga to‘laqonli ravishda yetkazish, imkon qadar insonlar aqli va qalbini kitob — ma‘rifat ziyosi tomon yo‘naltirishdek euzu g‘oyalari targ‘ib etilmoqda. Bunda ziyolilar, adiblar, targ‘ibotchilar, nuroniy-faxriylar o‘zaro hamkorlikda oliy ta‘lim muassasalari, umumta‘lim maktablari va mahallalarga taklif etilib, o‘quvchi yoshlar, yaqin va olis hududlar aholisi bilan jonli muloqot shaklidagi adabiy-ma‘rifiy uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Shunday ekan, bu vazifani faqatgina bir markaz yoki alohida davlat idorasining zimmasidagi mas‘uliyat deb hisoblash to‘g‘ri emas. Zero, ma‘rifat va ziyo tarqatish har bir insonning fuqarolik burchidir.

— Bugun yangilanayotgan O‘zbekistondagi o‘zgarishlar, keng ko‘lamli islohotlar natijasida aholi farovonligi ortdi. Bu xalqaro ekspertlar tomonidan ham e‘tirof etilmoqda. Zotan, 19 ta xalqaro reyting, jumladan, boshqaruv sifati indikatorlari, hukumat samaradorligi, jahon mamlakatlari demokratiyasi, matbuot erkinligi kabi indekslarda O‘zbekiston o‘z o‘imini tobora mustahkamlab bormoqda.

Bunday muvaffaqiyatlar zamirida kuchli boshqaruv hamda xalqimizga xos tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlari yotadi. Hozir ushbu fazilatlar bilan uyg‘un holda milliy qadriyatlar va an‘analarni anglash, bag‘rikeng jamiyatni shakllantirish har qachongidan ham muhim vazifaga aylangan.

Iqtisodiyot va ma‘naviyat taraqqiyotining ikki qanotidir. Shu sababli jamiyatning iqtisodiy rivoji bilan bog‘liq munosabatlarda ma‘naviyat masalalari, xususan, insonparvarlik, ijtimoiy talablar va me‘yorlar hisobga olinadi. Aholining zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan “Ma‘rifat ulashib” loyihasi shular jumlasidan.

Targ‘ibot ishlari, ma‘rifat tarqatish, asosan, bevosita muloqot hamda virtual ko‘rinishda amalga oshiriladi. Bizdagi kuzatishlar ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi paytlarda virtual olam targ‘iboti ko‘lami haddan ziyod kengaymoqda. Shu o‘rinda e‘tiboringizni ayrim raqamlarga qaratmoqchiman. 2025-yil boshida O‘zbekistonda 32,7 million kishi internetdan foydalangan bo‘lib, bu aholining 89 foizini tashkil etgan. Xuddi shu davrda yurtimizda 33,9 million mobil aloqa ulanishi mavjud bo‘lib, bu aholining 92,2 foiziga to‘g‘ri keladi.

Bu, albatta, rivojlanishni, tezkorlikni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bugun ma‘rifat ulashish, ma‘naviyat targ‘ibotida yanada



Davronbek MAXSUDOV,
Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisining birinchi o‘rinbosari:



— O‘zbekiston — dunyo ilm-fani va tamadduni rivojiga katta hissa qo‘shgan, ko‘plab olimlar, fozillar, shoirlar, adiblar, davlat va jamoat arboblarni tarbiyalab, dunyoga tortiq etgan zamin.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha puxta o‘ylangan izchil islohotlar kechmoqda. O‘tgan qisqa davr ichida Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Temiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi tashkil etilishi ham “Jaholatga qarshi ma‘rifat” euzu g‘oyasiga hamohang tarzda faoliyatimizning yorqin ko‘rinishidir.

Bugungi tahlikali, ziddiyatli zamonda O‘zbekistondagi mavjud dinlarni ramzi va millatlararo totuvlik hamda diniy-ma‘rifiy sohada iqtisodiy islohotlar ko‘plab davlatlar tomonidan

qo‘llab-quvvatlanmoqda. So‘nggi yillarda Misr, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Ozarbayjon, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Indoneziya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston singari davlatlarning diniy sohaga mas‘ul turdosh vazirlik va idoralari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda ta‘lim muassasalari bilan 125 dan ziyod hamkorlik memorandumini imzolangan fikrimizning isbotidir.

Oxirgi yillarda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkir allomalarning hayoti va ilmiy merosini o‘rganish yuzasidan jami 600 dan ortiq

kitob, monografiya, risola, badiiy asar nashr qilindi. Movarounnahrlk allomalimiz ma‘naviy merosiga oid chet ellarda chop etilgan mingga yaqin yangi kitob olib kelindi. Ulug‘ allomalimizning yurtimiz va xorijda saqlanayotgan merosiga oid 10 mingdan ortiq qo‘lyozma asarining elektron bazasi shakllantirildi.

Bularning barchasi o‘tib kelayotgan yosh avlodni kitobxonlik orqali ijtimoiy va axloqiy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, yot g‘oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, bir so‘z bilan aytganda, jamiyatda birdamlikni ta‘minlash, milliy qadriyatlarining o‘imini oshirishga xizmat qiladi.

Bag‘rikenglik, kechirimlilik, hamjihatlik va o‘zaro tushunib yashashga intilishdek olibanob fazilatlarini asrab-avaylash, uni jamiyatimiz, xususan, yoshlarimizga va xalqaro jamoatchilikka yetkazishni zamonning o‘zi taqozo etmoqda. Zero, bugungi globalashuv sharoitida yoshlarni diniy bag‘rikenglik va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda radikal qarashlarga nisbatan murosasizlik tuyg‘usini shakllantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotir.

Milliy o‘zlikka eltuvchi ustuvor qadriyatlar

Olimjon DAVLATOV,
Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti direktori:



— Taraqqiyot yo‘lining yangi bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda tarixiy o‘zgarishlarga mos yangi qadriyatlarini kun tartibiga olib chiqishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Yangi qadriyatlar tizimi jamiyatning barcha qatlamlari, davlat institutlari faoliyatining asosini tashkil qilgan holda mamlakatning milliy taraqqiyotini ta‘minlash imkonini beradi.

Ushbu ustuvor qadriyatlarining birinchisi ishonch sanalib, u ijtimoiy birdamlikning asosiy shartidir. Ishonch ijtimoiy munosabatlarda ishtirokchi tomonlarning bir-birining so‘zi, ishi va xatti-harakatlariga xayrixohlik bilan qarashi, qobiliyati va salohiyatini tan olishi, hamkorlik qilishi, yaqin munosabat o‘rnatishi va o‘zaro bog‘liq ekanidan tashvishga tushmasligini ifodalaydi.

Dunyoda yuqori farovonlik darajasiga erishgan Daniya, Yangi Zelandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Avstraliya, Indoneziya kabi davlatlarning eng asosiy yutug‘i jamiyatda begonalarga ishonish juda kuchli ekanidir. Umumiy ishonch darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar kuchli huquqiy tizim va kamroq korruptsiyaga ega. Aksincha, ishonch darajasi past bo‘lgan mamlakatlar ko‘proq korruptsiyalashgan.

Umumiy ishonch darajasi yuqoriligi kishilarni o‘z bilimi, malaka va tajribalarini to‘lig‘icha jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashiga rag‘batlantiradi, jamiyat a‘zolarining kelajakdan xavotirlanish hissini kamaytiradi. Ishonch yetishmasligi esa insonlarda jamiyatdan begonalashuv, ilg‘or g‘oya va tashabbuslarga qo‘shilmaslik, siyosiy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy

hayotdan o‘zini chetga olish, o‘zgarishlarga loqayd munosabatni kuchaytiradi. O‘zaro ishonch mavjudligi odamlarni har doim olg‘a intilishga chorlagan. Olg‘a intilish esa g‘alabadan ham yaxshiroqdir.

Ikkinchi, qat‘iy intizom. U umumqabul qilingan huquq va axloq normalariga muvofiq bo‘lib, mavjud tartib-qoidalar bilan belgilangan chegaralarni anglangan holda hurmat ko‘rsatishi va buzib o‘tmaslikni talab qiladi. Ma‘rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat “Bu dunyo kurash maydonidir... Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq”, deya ta‘kidlagan.

Ko‘plab xalqlarda intizom milliy o‘zlikning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, milliy qadriyat darajasida ardoqlanadi. Xususan, turkiy xalqlarda azal-azaldan intizomga katta ahamiyat berilgan. Chunki ko‘chmanchilik hayot tarzi intizomsizlikni mutlaqo qabul qilmagan. Bilga xoqon to‘rasida ham hech kim qonundan ustun emasligi bitib qo‘yilgan. Xalqlarning mavjudligi va birligining asosiy shartlaridan biri qonunga amal qilish va intizomli bo‘lish ekani, bunga davlat boshlig‘i ham, amaldor ham, oddiy xalq ham birday majburligi ta‘kidlangan.

Uchinchisi, faol fuqarolik jamiyati. Bu qadriyat hukumatning mas‘uliyati va shaffofligini oshirishga undaydi. Zero, fuqarolar faol va ijtimoiy mas‘uliyatli bo‘lsa, mahalliy darajadagi ko‘plab masalalarni hal etish vakolati fuqarolar zimmasiga o‘tkaziladi. Vakolatlarning bunday taqsimlanishi davlatning joriy muammolarga bog‘liqligini kamaytirib, fuqarolarning davlat bilan hamkorligi va jipsligini kuchaytiradi. Davlat idoralarda korruptsiya, tanish-bilishchilik, davlat mulkini talon-taroj qilish keskin kamayishiga, boshqaruvda salohiyatli hamda vatanparvar xodimlar ulushi oshishiga xizmat qiladi. Chunki odamlarning hayoti, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solayotgan qadriyatlar tizimida o‘zgarish bo‘lmasa, jamiyatni o‘zgartirishning imkoni yo‘q.

Nazarimizda, yana bir qadriyat borki, u xoh ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishda, xoh ma‘naviy-ma‘rifiy sohada bo‘lsin, barcha munosabatlarning tug‘ zaminini tashkil etadi. U halollikdir. Aynan niyat, so‘z va amal birligiga asoslangan halollik beligina ko‘zlagan euzu nityatlarimizga yetishishga muvaffaq bo‘lamiz.

Bunda, albatta, jamoatchilikning faol qatlami — mahalla oqsoqollari, nuroniy-faxriylar, ziyo va ijod ahli, diniy ulamolalar, yoshlar yetakchilari, ma‘rifat targ‘ibotchilari va boshqa ko‘plab soha vakillarining keng qamrovdagi fidoyilarcha hamjihatligi zarur bo‘ladi. Zero, millatni uyg‘otish uyg‘onganlarning ishi sanalganidek, bunday ulug‘vor ma‘rifiy yumushga o‘zini safarbar etmoq har bir yurtdoshimiz uchun ham farz, ham qarzdir.

Obiddin MAHMUDOV,
Respublika “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a‘zosi

Siyosiy-mafkuraviy tahdidlar yoki diniy ekstremistik ta‘lim-tarbiyaning alohida xususiyatlari

Rahmon QO‘CHQOR,
filologiya fanlari nomzodi:



— Har qanday siyosatning samarasi, obro‘si undagi muntazamlik, so‘z va amal birligi, ijrodagi mas‘uliyat hissi bilan chambarchas bog‘liq. Ayni talablarga rioya etilganidagina g‘oya hamda da‘vatlar hayotga izchil tabiiq etilib, ham siyosatning, ham siyosatining obro‘si, safarbarlik kuchi, ommani o‘z ortidan ergashtiruvchi qudrati oshadi.

Prezidentimiz 2023-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida butun insoniyatni bezovta qilayotgan eng jiddiy muammolar va ular yechimiga bo‘xtalib, bunday degan edi: “Biz ekstremizm balosi tarqalishiga, yoshlarning radikalashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun birgalikdagi harakatlarimizni kuchaytirishimiz zarur”.

Darhaqiqat, turli ekstremistik, radikal, toqatsizlikni keltirib chiqaruvchi harakatlar, oqimlar, buzg‘unchi guruhlar faoliyatiga bir davlatda muntazam tarzda, katta moddiy va ma‘naviy-ma‘rifiy resurslar safarbar etilib kurashilsa-yu, boshqa yurtlarda, ayniqsa,

qo‘shni diyorlarda vaziyat o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, o‘zibo‘larchilik va beparvolik qilinsa, oqibati nima bo‘lishini anglash uchun katta aql-farosat talab etilmaydi.

Bu taassufli holatning achchiq natijalariga O‘zbekiston hukumati va xalqi keyingi o‘ttiz yil ichida ko‘p bora guvoh bo‘ldi. Shu bois, davlatimiz rahbari jahonning ilg‘or rivojlangan mamlakatlari yetakchilari, xususan, qo‘shni davlatlar mutasaddilarini bu nozik va

xavfli masalaga nisbatan muntazam tarzda hamkorlikka, birgalikda kurashga da‘vat etib kelmoqda.

Shu o‘rinda so‘z yuritilayotgan jiddiy muammoning yana bir muhim jihatiga e‘tibor qaratis talab etiladi. Radikallashuv, diniy ekstremizm, terrorchilik, har turli nigilistik harakat va holatlarning yuzaga kelishi sabablari xususida gapirilayotganda, bu buzg‘unchi harakatlar boshida turgan guruhlar o‘z saffalariga nuqul “o‘qimagan, savodsiz, johil kishilarni, xususan, yoshlarni jalb etishadi” qabilidagi mulohazalarga ko‘p bor duch kelamiz. Ammo ayni bunday yovuz harakat va xurujlarga qarshi olib borilayotgan shuncha yillik kurashlarimizning tahlili bu noto‘g‘ri, biryoqlamali qarash ekanini anglatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat ichi va tashqarisida faoliyat yuritayotgan turli siyosiy-mafkuraviy markazlar ish uslublari, ular domiga tortishi mumkin bo‘lgan aholi qatlamlari va aniq shaxslarni yaqindan bilish, barcha qarshi harakatlarni ushbu omillardan kelib chiqqan holda tashkil etish biz uchun hayot-mamot masalasi hamda bu g‘oyaviy kurashda g‘olib bo‘lishning muhim shartidir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
36191 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘Z a yakuni — 01:30 Topshirildi — 01:55